



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI MAKTABLAR TASNIFI

Tarix yo`nalishi 2-kurs talabasi
Ziyodullayev Behruz
Ilmiy rahbar **Tolibov Nurbek**

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi maktablaridagi ta`limi, maktabxonalarning tuzilishi haqida aytib o`tiladi. Bolalarga ta`lim berishda boshlang`ich ta`limning o`rni yuqori hisoblanadi. Maktabxona ta`limi Buxoro amirligida boshlang`ich ta`lim hisoblangan.

Kalit so`zlar. *Ustad, Buxoro, maktabxona, Abdurauf Fitrat, Sadrididdin Ayniy, falloq, bibliotin.*

Аннотация. В данной статье говорилось об образовании в школах Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX века. Роль начального образования в воспитании детей высока. Школьное образование считается начальным образованием в Бухарском эмирате.

Ключевые слова. *Устад, Бухара, школа, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айний, фаллок, библиотин.*

Annotation. In this article, it was mentioned about the education in the schools of the Bukhara Emirate in the end of the XIX century and the beginning of the XX century. The role of primary education in the education of children is high. School education is considered primary education in Bukhara Emirate.

Key words: *Ustad, Bukhara, school, Abdurauf Fitrat, Sadrididdin Ainiy, falloq, bibliotin.*

Kirish. Buxoro sharif bir necha yuz yillar davomida ilm beshigi va ta`lim markazlaridan biri bo`lgan. Malumki davlatning rivojlanishida ta`limning o`rni juda yuqori hisoblanadi. Bu zamindan ko`plab olimlar yetishib chiqqan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ta`limga hukmdorlar e`tibor qaratmadi. Bu davrda Buxoro amirligida ta`lim sifati juda past bo`lgan. Buxoroda an`anaviy ta`lim tizimi 2 bosqichdan iborat bo`lgan. Bu davrda maktab ta`limi o`qishning birinchi bosqichi hisoblangan. Ta`limning ikkinchi bosqichi madrasa ta`limi hisoblanadi. Buxoroda boshlang`ich maktablar bolalarning xat savodini chiqarish, axloq va odob meyorlarini o`rgatuvchi joy hisoblangan.

Buxoroda bu davrdagi an`anaviy maktab tizimi milodiy VIII asrda ya`ni, arablar tomonidan olib kirilgan. Ta`limni rivojlantirish uchun boshlang`ich maktablarning o`rni yuqori hisoblangan. Buxoro amirligi hududagi maktabxonalar haqida Abdurauf Fitrat quyidagicha fikrlarni keltirib o`tadi: "Maktab shunday joydirki, bir muallim bor, uni maktabdor deydilar, bolalar u yerda yetti yildan o`n yilgacha o`zi uchun zarur xat-savodini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlarga qarab madrasaga o`qiganlar".

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.

Buxoro shahri O`rta Osiyoning yirik ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi. Buxorodagi ta`lim sohasi Bobojonova F, Abdullayev Y, Alimova D, Dolimov U, Ziyayeva D, Orifjonov E tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy-qiyosiy, ilmiy, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Buxoro shahri bir necha yuz yillar davomida faqat O`rta Osiyo emas balki, butun sharq musulmon olamining yirik ilmiy markazi bo`lib kelgan. Buxoro shahri "Islom dinining gumbazi" "Islom dinining quvvati" kabi nomlar bilan ulug`langan. Bu davrda Buxoroda mang`itlar sulolasidan chiqqan hukmdorlar hukmronlik qilgan. Davlat tuzum jihatidan mutloq monarxiya edi. Buxoro amirligi Yangi davrga kelib ilg`or Yevropa davlatlaridan orqada qolgan edi. Shu jihatdan ta`lim sohasida ham orqada qolib ketgan edi. Mirzo Abduazim Somiyning "Mang`it sultonlari tarixi" asaridagi malumotlarga ko`ra Buxoro amirligidagi parokandalik amir Nasrullaxon hokimiyatga kelganidan so`ng boshlanganligi keltirib o`tiladi. Buxoroda ta`lim ko`p yillar davomida 2 bosqichdan iborat bo`lib kelgan [1].



O`rta Osiyoda birinchi maktab 714-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkida zardushtiylik ehromi o`rnida qurilgan. Maktab so`zi arabcha “kataba” yani, yozishga o`rgatadigan joy manosini anglatadi. 1896-yilda Sant Peterburgda nashr etilgan ensiklopediya maktabni masjid qoshidagi xat savod chiqaradigan va diniy bilimlarni o`rgatuvchi joy sifatida tasvirlaydi [2]. Buxoroning barcha qishloq ovullarida maktablar bo`lgan. Bunday qishloq ovullarida maktablar asosan bitta xonadan iborat bo`lgan shuning uchun ham ular maktabxona deb atalgan. Musulmon odatlariga ko`ra og`il va qiz bolalar alohida o`qitilgan. Lekin bu davrda Qoraqolpog`iston hududida o`g`il va qiz bolalar aralash holda o`qitilgan. XIX asrda Buxoroda bo`lgan

Xanikovning yozishicha boshlang`ich maktab yoki maktabxonalar Buxoro shahri va qishloqlarida juda ko`p bo`lgan. Islom diniga ko`ra maktab va madrasa masjidlariga vaqf qilib berilgan mulklardan maktab va madrasa binolarni tamirlash, maktab va madrasa muallimlarini taminlash va davlatga soliq to`lash uchun foydalanilgan. O`g`il bolalar maktablari masjidalar, madrasalar va qorixonalar qoshida yoxud xususiy maktabdorlarning uylarida tashkil qilingan. Qiz bolalar maktablari esa badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlarini o`qitish uchun ularning uylarida tuzilgan. Maktablarda og`il bolalarga ta`lim beruvchi shaxsni “domla” “ustoz” yoki “muallim” deyishgan. Qizlarning maktablarida ta`lim beruvchilarni esa otinoyi, otinibibi (Toshkentda), “bibiotin” (Buxoroda), “eltibibi” (Xorazmda) kabi nomlar bilan aytishgan [1]. Vaqfnomlarda keltirib o`tilishicha maktabxonalar yog`och, xom va pishgan g`ishtdan qurilgan. Buxorodagi maktablarning ko`pchiligi bitta xonadan iborat bo`lgan. Bolalar bo`yra yoki gilam ustida o`tirishgan. Maktabxonalar juda tor bo`lgan, o`quvchilar otiradigan joy esa zax va nam bo`lgan. Maktabxonalar aholining xayr-ehsoni va amir buyurug`idan tashqari mahallada yashovchi aholining mablag`iga ham qurilgan. Islom diniga ko`ra ilm olish uchun murojat qilgan odamga rad javobini berish juda og`ir gunoh hisoblangan. Maktabxonalar qabul qilish Buxoro amirligida 5 yoshdan 12 yoshgacha bolgan [3]. Sadriddin Ayniy tug`ilgan uch yuz xonadonlik qishloqda

to`rt yoshdan o`n ikki yoshgacha bo`lgan bolalar ta`lim olishini keltirib o`tgan. Maktabxonalarda o`qish muddati to`rt yildan o`n yilgacha davom etgan. XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligi maktablarida o`qish o`rtacha 7 yil deb ko`rsatilgan. O`sha davr matbuoti — “Oyna” jurnalida qayd etilishicha, “Muddati tahsil ko`p uzoq bo`lganligi uchun ko`p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo`ya olmagan” [4]. Talim olish muddati uzoq bo`lganligi sababli ko`plab o`quvchilar oxirigacha ta`lim ola olmaganlar. Bolalarning qancha vaqt davom etishi o`zlarining zehni, oilaviy ahvoli va muallimnga ham bo`g`liq bo`lgan.

Maktabxonalaridagi darslar ertalab quyosh chiqqandan to asr namoziga qadar davom etgan. Darslarda har bir yoki ikki soatda tanaffus bo`lib turgan. Maktablarda ta`lim bir xil bo`lmagan. Bolalar maktabxonalarda sinflarga ham bo`linmagan. Darsliklar ham uzoq yillar davomida isloh qilinmagan. Maktablarda o`quvchilar o`qigan ko`plab darsliklar bir necha yuz yil avval yozilgan. Qizlar maktabida o`qitish og`il bolalarnikidan farq qilgan. O`zining savodini qizlar maktabida chiqargan Sadriddin Ayniy ushbu maktabni quyidagicha ta`riflaydi: “Otinibibi o`zining butun vaqtini saboq berishga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o`z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o`qish o`tar edi. Otinibibining bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan to soat o`n ikkigacha davom etar, u bolalarni masjiddagi domladay ertadan to kechgacha bir xonada qamab qo`yib zeriktirmas edi. Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o`z uylarida yeganlaridan keyin yana maktabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o`qish bilan yana shug`ullanar edilar” [5]. Sadriddin Ayniyning yozishicha o`g`il bolalarning maktabidan ko`ra qiz bolalar maktabida yaxshiroq ta`lim berilgan.

Qiz bolalar maktablari boy oilalar uyida ochilgani sababli u yerda ta`lim yaxshiroq berilgan. Qiz bolalar maktablarida dars jarayonlari o`g`il bolalarniki kabi uzoq davom etmagan, dars davomida ham tanaffus o`gil bolalarnikkiga ko`ra ko`proq berilgan. Maktabda muallimlariga vaqf mulki belgilab qo`ygan maoshdan boshqa foydalar ham kelib turgan. Bolalar maktabga kelganida, qandaydir muvaffaqiyatga erishganida va biror bir kitobni



tugatganida muallimga pul yoki sovg`a bergan. Sovg`a yoki pul berish bolalarning ota-onasiga bog`liq bo`lgan. Yetimlar esa barcha maktabxonalarda bepul o`qitilgan. Maktabxonlarni bitirgan barcha bolalar ham madrasa ta`limini davom ettirmagan. Ta`lim sifati ham juda past bo`lgan.

Qishloq maktablaridan ko`ra shahar maktablarida yaxshiroq ta`lim berilgan. Maktabxonalarda o`quvchilarga nisbatan domlalar bir xil munosabatda bo`lmagan. Dars beradigan domlarning ba`zilari boy kishilarning farzandlarini alohida e`tibor bilan o`qitishgan. Boy odamlarning farzandlari vaqti vaqti bilan domlarga pul berib turishardi. O`qimagan bolalarni jazolash ham juda og`ir bo`lgan. Ko`pincha bolalar falloq bilan jazolanga. Falloq bu maktabxonalarda bolalarni jazolash uchun ishlatilgan arqon hisoblanadi [6]. Sadridin Ayniy maktabdagi jazolash haqida quyidagicha yozadi:” Domla intizomni tayoq yordamida saqlab turardi. Domlarning orqasida suyab qo`yilgan bir nechta tayoq turardi. O`zaro

janjallashgan bolalarni tayoq bilan urardi [kitob]. Bu davrga kelib rivojlangan Yevropa mamlakatlarida bolalarni tan jazosi bilan jazolash taqiqlangan. 1900-yilga kelibgina maktabxonalarda falloq bilan jazolash taqiqlab qo`yilgan [1]. Maktabxonlarning ko`pchiligi hattoki maxsus binoga ega bo`lmagan. Ular ko`pincha madrasa ayvonlarida o`qitilgan. Qishloq maktablarida ko`pincha muallim yetishmagan. Muallimlarni ko`pchiligi yetarli bilimga ega bo`lmagan. Sadridin Ayniyning yozishicha unga muallim noto`g`ri ta`lim bergani uchun ko`pincha unga otasining o`zi o`qitganini aytib o`tadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki davlatning rivojlanishida ta`limning o`rni yuqori hisoblanadi. Bu davrda Buxoro amirligi ta`lim tizimi ko`p yillar davomida isloh qilinmadi. Bu borada Bismark o`zining so`zlarida shunday deydi:” Maktablarga pul ajratmagan davlat kun kelib qamoqxonalar qura boshlaydi”. Davlatni rivojlantirishda eng avvalo xalqning ongini rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F. Bobojonova “XIX asr oxiri XXasr boshlarida Buxoro amirligida ta`lim tizimi”.
2. O`zR MDA, 47-fond,1-ro`yxat,333-ish,6-varoq.
3. Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. — С П 6., 1843. — С. 211
4. Rajabzoda. “Ibtidoiy maktablarning tartibsizligi yoxud taraqqiyot yo`li” 1914.
5. Ayniy S. Eski maktab// Asarlar.VIII tomlik-Toshkent. Badiy adabiyot.1965
6. <https://milliycha.uz>